

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 30-may - 5-iyun N:22 (66511)

BITIRUVCHILARGA TILAKLARIM

Qadrdon bitiruvchi! Mana bugun Siz maktab ostonasini bir umrga tark etmoqdasiz. Qalbingizdagi hayajonni o'zingizdan boshqa hech kim sizchalik his etolmaydi. Men esa his etaman. Chunki o'zim ham bitiruvchiman, 9-sinfni tamomlayapman

Yurtimizdagi barcha bitiruvchilarga bir olam tilaklarim bor: kelajakda o'zingiz sevgan kasb egasi bo'ling. Dilingizdagi barcha orzu-istaklaringiz ro'yobga chiqsin. Ota-onangiz, ustozlaringiz orzulagandek komil inson bo'lib ulg'aying.

Bugun biz uchun barcha bilim eshiklari keng ochiq. Shunday ekan, bilimimiz va omadimizni sinab ko'raylik. Bu borada barchamizga omad yor bo'lsin!

Zarina MO'MINOVA,
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi
87-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.

XAYR, ONAJON MAKTAB!


Men uchun aziz va yagona maskan,
Qadrdon koshonam, ulug'im maktab.
Sendan minnatdormiz biz har birimiz,
Xayr, jonajonim, onajon maktab!

Biz ketamiz sening bag'ringdan uchib,
Qaytmaz shodliklarning qanotin quchib.
Ammo qalbimizdan yuramiz maqtab,
Xayr, jonajonim, onajon maktab!

Ustozlar, berdingiz bizlarga ta'lim,
Sizga rahmat, deymiz aziz muallim.
Yuramiz to'ab biz seni maqtab,
Xayr, jonajonim, onajon maktab!

Mavluda USMONQULOVA,
Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi Amir
Temur nomli maktabning 8-sinf o'quvchisi.

1-iyun — Xalqaro bolalarni
himoya qilish kuni



BOLA KULSA, OLAM KULADI

Bola kulsa, olam kuladi. Bolajonlar bizning kelajagimiz, quvonchu shodligimizdir. Ularni asrab-avaylash, mittigina murg'ak qalblarida yaxshilik, ezgulik kabi fazilatlar uyg'otish barchamizning vazifamizdir. Ertangi kunlari farovon, osuda bo'lishi uchun nimaiki zarur bo'lsa, barini muhayyo qilishga biz kattalar burchlimiz. Bu



borada yurtimizda talaygina ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Har bir bola davlat muhofazasida. Ularning salomatligi, ilm, hunar o'rganishi uchun sharoitlar yetarli. Bolalar faqat ezguliklarni, yaxshi, chiroyli

narsalarni ko'rib ulg'ayishlari lozim. Shunda ular qalbida ham go'zalliklar yaratishga moyillik bo'ladi. Shahar va qishloqlarimizning kundan-kunga chiroy ochib borayotganidan, soya-salqin oromgohlar, saylgohlar, sihatgohlar va sport majmualari bolajonlar ixtiyorida ekanligidan quvonasan kishi.

Lekin dilni xira qiluvchi ayrim manzaralar ham yo'q emas. Ayrim ko'p qavatli uylar yonidagi axlat uyumlarini, ularga yaqin joylarda o'ynayotgan yoki mashinalar serqatnov yo'llarda to'p tepayotgan bolalarni ko'rib, ranjib

ketaman. Boshqa qayerda ham o'ynashsin, turar joylari atrofni rejasiz qurilishlar, panjaralar o'rab olgan bo'lsa?! Yana, u yoqqa o'tma, bu yerda o'ynama, degan ta'qiqlar quloqlari ostida takrorlanib tursa...

Men hali talabaman. Bunday muammolarni yechishga qodir emasman. Lekin ota-onalarimiz, mutasaddi amakilarimiz bu haqda jiddiy o'ylab ko'rishsa, yomon bo'lmadi.

Malika RAHMONBEKOVA,
Zulfiya nomidagi
Davlat mukofoti sovrindori.

BIZNING BAYRAM

Assalomu alaykum qarddonim «Tong yulduzi»! Ko'pchilik tengdoshlarim qatori men ham senga maktub yo'llayapman. Sinfimiz o'quvchilari 18 dona «Tong yulduzi» gazetasi olishadi. Qiziqarli sahifalarini qunt bilan o'qib, fikrlashamiz. Sinf rahbarimiz Gulnoza Aliboboyeva har hafta bo'ladigan erkin saboq darslarini sahifalaridagi rang-barang mavzular asosida o'tadilar.

Men ham 1-sinfidan boshlab she'rlar yozaman. Bugun senga o'z ijod namunalardan yuborishga ahd qildim. Sahifalarindan ilk she'rim



uchun ozgina joy ajratsang, xursand bo'lardim.

Maktubim orqali diyorimizdagi barcha bolalarni 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bayrami bilan qizg'in qutlayman. Bu bayram bizning bayram. Ertamizni o'ylaydigan, bolalarni sevguvchi diyorimiz qo'ynida yayrab kamolga yetayapmiz.

SUHBAF

Besh olitita tinish belgi,
Yig'ilishib suhbat qurar.
Qaysi so'zdan keyin kelsa,
O'sha soqchi bo'lib turar.
Ikki nuqta va qo'shtirnoq,
So'roqning ham o'z o'rni bor.
Vergul, nuqta, ko'p nuqta...
His-hayajon undovga yor.
Ular doim ahil-inoq,
Shuning uchun yashar quvnoq.

Xudoyberdi NIYOZOV,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi
57-umumta'lim maktabining
4-«V» sinf o'quvchisi.

Yodimda bor, bundan ikki yil avval «1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni» bayrami arafasida onamga, bizni kimdan

ko'rib, kuzatib boryapman. Tunov kuni ana shunday oqimga qo'shilib qolgan 8 yoshli bir bolakayni ko'rsatishdi. Unga majburan turli

berdi. Yana bir bolakayni esa bir xonaga qamab qo'yib, rosa kaltaklashibdi. Xolasining aytishicha, kaltak zarbidan uning

BIZNI KIM DAN HIMOYA QILISHADI?

va nimadan himoya qilishadi, deya savol bergandim. Ular menga, ayrim xastaliklardan, turli oqimlar ta'siridan, deya javob bergandilar. To'g'risi, men bu gaplarning mohiyatini to'liq anglab yetolmagandim. Hozir esa aniq bilaman. Chunki kuni kecha Andijon viloyatida sodir bo'lgan noxush voqealarni televizor orqali

matnlarni yodlatishar ekan. Agar biror bir so'zini noto'g'ri talaffuz qilsa yoki qoldirib ketsa, uni o'n kosa suv ichishga majburlasharkan. Bunday tahqirlash va qiynoqlar azobidan haligi bola soqov bo'lib qolibdi. Bu gaplarni esa uning do'sti aytib

orqalari momataloq bo'lib, yiringlab ketganmish...

Shularni eshitib, ko'rib, o'zinga xulosa chiqardim: demak, kattalar biz bolalarni ana shunday oqimlar ta'siridan, razilliklardan asrashlari lozim ekan.

Durdona QODIROVA,
poytaxtimizdagi 129-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi.

Respublikamizning barcha ta'lim maskanlarida iqtidorli yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Ularning orasida turli tanlovlarning g'oliblari ham talaygina.

Ayniqsa, hassos shoira Zulfiya mukofotiga nomzodlar soni kun sayin oshib bormoqda. Ularga barcha havas qiladi. Axir ularda barcha oliy o'quv yurtlariga kirish imtiyozlari bor. Hatto biz yigitlar ham tengdoshlarimiz, opa-singillarimizning muvaffaqiyatlarini ko'rib chin dildan quvonamiz. Ba'zan ko'cha-ko'yda, o'quv maskanimizda yigitlarning qaniydi biz uchun ham shunday nufuzli tanlov e'lon qilinsa-yu, unda g'oliblik uchun bellashsang, degan gaplarini eshitib qolaman. Ularning e'tirozi o'rinli. Darhaqiqat, nega yigitlar uchun bunday tanlov tashkil qilinmagan. Oybek yoki Abdulla Qahhor kabi buyuk adiblar nomida yigitlar uchun ham tanlovlar tashkil etilsa bo'ladi-ku. Axir adabiyot,

HAVAS

san'at, fan, ta'lim, sport yo'nalishida iqtidorli yigitlarimiz ham ko'p-ku. Birgina bizning litseyimiz miqoyosida oladigan bo'lsak, Baxtiyor Yoqubov, Murod Habibov kabi tengdoshlarimning ijod namunalari allaqachon kitob holida chop etilgan.

Navqiron Boymurodov, Odil Zohirov kabilar Respublika fan olimpiadalari g'oliblaridir. Javlon Isroilov, Temur Chibanovlar esa chet ellarda ta'lim olishmoqda.

Sana y versam muvaffaqiyatlari arzigulik yigitlarimiz ko'pchilikni tashkil qiladi. Bir so'z bilan aytganda yigitlar ham tanlovda tanilishni istaydilar.

Nuriddin HAYDAROV,
O'zMU qoshidagi
S.Rahimov
akademik litseyi talabasi.



Maktabga ilk bor qadam qo'ygan bolajonlarga boshlang'ich sinf o'qituvchilari ona, Vatan, non kabi so'zlarning yozilishi va ma'nosini tushuntirsalar, biz yuqori sinf o'qituvchilari esa o'quvchilarimiz ongiga onani ulug'lash, Vatanni ardoqlash, nonni e'zozlash kabi xislatlarni singdira boramiz.

USTOZLARNING KOTMAKCHILARI



Bu o'quv yilida menga 5-«B» sinf o'quvchilarini ishonib topshirishdi. Yaqindagina maktabdan «uchirma bo'lgan» 9-sinf o'quvchilarim o'mini egallagan kichkintoylarim juda tartibli, intizomli, bilimga intiluvchan o'g'il-qizlar ekanlar. Ayniqsa, sinf sardori Ro'zmat Jumanazarov, uning yordamchisi Malika Asadova, kamolotchilarimiz Buvinisa, Nigora, Quadrat, Murod, Shoira va Behzodlar tengdoshlariga har tomonlama o'mak bo'lsa arziydigan o'g'il-qizlardir. Ular bilan birga tashkil qilingan «Ona tilim - jonu dilim», «O'zbekiston Vatanim manim», «Ogohlikka da'vat», «Vatan ichra Vatanim» kabi kecha va tadbirlarimiz juda maroqli o'tadi. Bo'sh vaqtlarimizni ham behuda o'tkazmaslikka intilamiz. Shu maqsadda

Shogird haqida so'z

tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtiramiz, tarixiy maskanlar va muzeylarni tomosha qilgani boramiz. Hademay boshlanadigan yozgi ta'til kunlarida Samarqand va Buxoro kabi qadimiy shaharlarimizga sayohatga borishni rejalashtiryapmiz.

Bizning mo'jazgina teatrimiz ham bor. O'z qo'limiz bilan yasagan qo'g'irchoqlarimiz tili orqali tomoshabinlarimizga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, sadoqat va xiyonat kabi fazilat va illatlar orasidagi farqni tushuntirib berishga intilamiz.

O'quvchilarim orasidan olimlar, san'atkorlar, shifokorlar, sport ustalari, tarbiyachilar, qo'yingchi, xalqning koriga

yaraydigan insonlar yetishib chiqsa, dunyoda mendan baxtliroq inson bo'lmasdi.

O'ktamxon RAHIMOVA,
poytaxtdagi 27-maktabning rus tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi.

Barcha qulayliklarga ega bo'lgan ta'lim maskanimiz qishlog'imizning eng so'lim go'shasida joylashgan.

Manzarali va mevali daraxtlar, rang-barang gullar maktabimiz chiroyiga chiroy qo'shadi. Qalbi daryo ustozlarimiz bizga fan sirlarini qunt bilan o'rgatib kelishmoqda. Ta'lim maskanimizda o'quvchilar uchun to'garaklar tashkil qilingan. Talabchan va jonkuyar ustozimiz, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnoza opa Egamova boshqaradigan «Gulshan» to'garagi mashg'ulotlari bizning jonu dilimiz.



GULNOZA OPANING GULSHANI



Ko'pincha mashg'ulotlarimizda «Gulshan», «Tong yulduzi», «Sinfdosh» kabi gazeta va jurnallarni sharhlab, o'zimiz yozgan she'r, maqola, hikoya, masallarimizni o'qib beramiz. Ustozimiz har birimizning ijodimizni alohida nazorat qilib, tegishli ko'rsatmalar beradilar. To'garagimizda yurtimizning taniqli adiblari bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazilib turiladi. «Mezon» ko'rsatuv boshlovchisi Nozima Vohidova, taniqli jurnalistlar Soat Sharipov, Mohigul Nazarova, Ramazon Baqoyevlar bilan uchrashuvlar o'tkazdik. Shahrimizda chop etiladigan «Dardkash» xotin-qizlar gazetasi bosh muharriri Baxshanda Boltayeva yaqinda bizning to'garagimiz mehmoni bo'ldilar. Gazetaning chop etilish jarayoni, uning mavzulari haqida gapirib, ijod namunalardan o'qib berdi. Dilimizdagini nigohlarimizdan anglab yetadigan Gulnoza opa kabi ustozlarimizga doimo ta'zimdamiz.

O'lmasoy MUHAMEDOVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi «Ko'krabod» qishlog'i.

RAXTLI MAKTABLAR

Respublika Nafis san'at litseyi binosi bayromona ruhda bezatilgan. Ta'lim dargohi atrofi orasta. Rang-barang gullar kishining bahri dilini ochadi. Bu yil 14- marotaba o'tkazilayotgan «Ijodkor o'qituvchilar» va «Nafosat» yosh qalamkashlar anjumani tantanalari ushbu o'quv maskanida o'tkazilishi ham bejiz emas. Unda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan iqtidorli o'qituvchilar va o'quvchilar o'z ijod namunalari bilan ishtirok etishdi. Ushbu anjuman ishtirokchilarining fikrlarini siz ham eshitib ko'ring-a.



Zulxumor JO'RAYEVA,
Buxoro viloyati, Kogon tumanidagi

4-umumta'lim maktabining til va adabiyot fani o'qituvchisi:

Ushbu anjuman qatnashchisi ekanligimdan faxrlanaman. Biz ustozlarga «Ijodkor o'qituvchisi bor maktab-baxtli maktab», deya ta'rif berishadi. Bunday ishonch, e'tibor meni yana ham barakali ijod qilishga, tinmay izlanishga undaydi. Taassurotlarim bir olam...

Xudoyor BERDIYOROV,
Sirdaryo viloyati,
Guliston shahridagi
7-maktabning
8-sinf o'quvchisi:

-1-sinfidan boshlab ertak, hikoya va she'rlar yozaman. Yozganlarimni birinchi tinglovchisi albatta oyijonim bo'ladilar. Bir kuni tumanimizda xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov bilan bo'lgan uchrashuv chog'ida ulardan kichik bir she'rimni ko'rib berishlarini iltimos qildim. Shoirimiz mening she'rimni qo'limdan olib, cho'ntaklariga solib qo'ydilar. Garchi bir og'iz so'z aytmasalar ham u kishining menga e'tibor bilan boqishlari hamon yuragimda saqlanadi.



Dilafro'z BAXRIDDINOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
11-maktabning 9-sinf o'quvchisi:

«Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati «Kamalok» Bolalar tashkiloti «Sardor-2005» ko'rik-tanlovi respublika bosqichi g'olibi:

- Bu yilgi tanlovda qatnashayotgan ijodkor tengdoshlarimning har biri bilimga chanqoqligi, zukkoligi bilan ajralib turuvchi ijod bo'stonining umidli nihollaridir. Anjumandagi o'zaro qizg'in bahs-munozaralarimiz bilimimizni yanada boyitdi.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.

Sherquvvat PRIMOV,

Kattaqo'rg'on tumanidagi 74-o'rta maktabning tarix o'qituvchisi:



-Yoshligimdan she'rlar yozishga qiziqaman. O'quvchilarimga tarix fanidan berayotgan saboqlarim jarayonini adabiyotga qo'shib olib boraman. Nazarimda shogirdlarim yana ham chuqurroq bilimga ega bo'lishadi. 200 dan ziyodroq qadimiy eksponatlarga boy uy muzeyi tashkil qilganman. Ularda ajdodlarimizning urf-odatlarini, kasb-korlari aks etgan. Bugungi anjuman o'zim singari ijodkor o'qituvchilarga katta maktab bo'ldi desam, aslo mubolag'a emas. Ijod namunalarim hay'at tomonidan yuqori baholandi. Nazarimda ijod insonni komillik sari yetaklovchi buyuk kuchdir.

Olloh, shukur deyman doim o'zingga,
Yetishib chiqmoqda shogird, izdoshim.
Shular bor-masurman, ko'ngil xotirjam,
Shul sabab el aro mag'rurdir boshim.

Ushbu o'tli satrlar Nurobod tumanidagi 62-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Shodiyor Yo'ldoshevning qalamiga mansub.

-O'qituvchining ijod bilan shug'ullanishi uning bilim darajasini oshiradi. Berayotgan har bir sabog'im mavzusiga oid asarlarni avvalo o'zim o'qib, chuqur talqin qilaman. Vaholanki, ba'zi o'qituvchilar darsliklardagi asarning kichik bir parchasi bilan kifoyalanib qo'yadilar, xolos. Bu noto'g'ri. O'quvchi qisqa bir parchadan ko'ra asarning to'liq mazmunidan ko'proq bilim oladi. Bu yilgi anjuman avvalgi yillardagiga qaraganda rang-barang mazmun, mohiyat kasb etmoqda. O'zim singari ijodkor kasbdoshlarim bilan yaqindan tanishib, tajriba almashganimdan baxtiyorman.

Ruxsora TO'XTAMISHOVA,

Narpay tumanidagi 30-maktab o'qituvchisi:

-Anjuman qatnashchisi ekanligimdan quvonchim cheksiz. Men uchun ilhom manbai o'quvchilarimdir. Shogirdlarim quvonsa quvonaman... O'zim kabi fidoyi, bolalarni sevadigan hamkasblarim bilan tanishdim. O'ylaymanki, shunday anjumanlar tez-tez o'tkazilsa, yutuqlarimiz soni ko'payaveradi.



TINCHLIK QIZI

Tengdoshingiz Arofat Isoxoqova Shayxontohur tumanidagi 59-maktabning 1- «A» sinfida a'lo va yaxshi baholarga o'qiydi. Izlanuvchan, zukko qiz. Qushlarni, gullarni yaxshi ko'radi. Sinf rahbari Dildora Oripovaning eng yaqin yordamchilaridan.

-Katta bo'lganimda men ham Dildora opam singari hamma o'quvchilar yaxshi ko'radigan muallima bo'lamen,- deydi Arofat. -Ustozimiz o'qishimizni, yurish-turishimizni, bir-birimizga bo'lgan muomalamizni har kuni erinmay kuzatadilar. Darslarimiz qiziqarli, bugungi sabog'imiz kechagisidan puxtaroq o'tadi.

f an l a r i g a qiziqaman. Kuni kecha televizorda Livan, Suriya, Iroq k a b i mamlakatlardagi biz tengi bolalarning mashaqqatli hayotini ko'rsatishdi.

Ularning ayrimlari

hatto o'qish, yozishni ham bilishmas ekan. 3-sinfda o'qishi lozim bo'lgan Yan Kabo bir tishlam non topish ilinjida shahar ko'chalarida oyoqyalang holda ertalabdan kechgacha kezishga majbur. Xo'rsinib qo'ydim. Bizning ona diyorumizda bolalar yayrab bilim olishadi. «Tinchlik bebaho ne'mat, uni asrab-avaylashimiz zarur», deya hamisha ta'kidlaydilar onajonim. Men ham ularning ilohim osoyishta kunlarimizga ko'z tegmasin, degan so'zlariga qo'shilaman. Nigohlari quvonchdan porlab tinchlik haqida berilib so'zlayotgan Arofatga hamisha «Tinchlik qizi» bo'lgib qolgin, degim keladi.

Rahmon AHMEDOV yozib oldi,
O'zMUning I-bosqich talabasi.



Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolajonlarni maktabga tayyorlash ishlari avjida. Ana shunday ezgu ishlar Zangiota tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 11-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida ham amalga oshirilyapti.

1995-yil «Lola» nomli 11-maktabgacha ta'lim muassasasi 6 ta guruhdan iborat bo'lib, bulardan

Shu yillar davomida uslubchilikdan mudira darajasigacha yetib keldim. Bolajonlarimizni sog'lom, baquvvat qilib voyaga yetkazishga harakat qilib kelmoqdamiz. Ayniqsa, sog'lomlashtirish ishlariga katta e'tibor qaratiladi. Ularni sifatli, darmondorilarga boy ovqat va sharbatlar bilan ta'minlanishida tuman XTB mudiri Shavkat

BOLAJONLAR, MAKTABGA TAYYORMISIZ?

beshtasi katta, bittasi esa kichik yoshli bolalar guruhidan iborat. Bu dargohda 2,5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadilar. Ushbu maskanda 25 ta xodim faoliyat ko'rsatib, bolalarni maktabga tayyorlashda astoydil xizmat qilmoqdalar. Zulfiya Matkarimova, Xolida Yuldasheva, Komila Aslbekova, Zumrad Norova kabi tarbiyachilar o'zlarining intiluvchanliklari, ijodkorliklari bilan boshqa tarbiyachilarga namuna bo'lmoqdalar.

Ushbu maskanning mudirasi Karima Norxo'jayeva bilan suhbatda bo'lganimizda, ular faxrlanib shunday deydilar:

- Ushbu qutlug' dargohda 1970-yildan tarbiyachi sifatida ish boshladim.

Madumarov katta yordam bermoqdalar. 2004-yil hokimlik yordamida maskanimiz tomi qisman ta'mirlanib, isitish tarmog'i almashtirildi. Muassasamizda bolalarni maktabga tayyorlashda «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi va «Bolangiz maktabga tayyormi?» qo'llanmasi asosida ish olib borilmoqda. Bolalar bilan turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Tez shamollovchi bolalarni, yassioyoqli bolalarni toshchalar ustidan yurgazish yaxshi natija bermoqda.

Bunday e'tibordan so'ng bolalarning maktabga bilimli va sog'lom bo'lib borishlari shubhasiz.

ASALCHI amaki.

5-iyun - Umumjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni

Aziz bolajonlar, hech o'ylab ko'rganmisiz, bayramlar qanday maqsadlarda tashkil qilinadi? Alohida ahamiyatga molik bo'lgan biror sanani nishonlash, tantana qilish uchun, kasb bayramlari esa turli kasb egalarini e'zozlash, ardoqlash uchun, to'g'rimi? Yana shunday bayramlar ham borki, ular bizni ogohlikka, yanada e'tiborliroq bo'lishga chorlash uchun ta'sis etiladi. Masalan, «Giyohvandlikka qarshi kurash kuni», Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni kabilar. 5-iyun kuni ana shunday bayramlarimizdan yana biri - «Umumjahon atrof-muhitni himoya qilish kuni»ni nishonlaymiz. O'z nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu sana bizni atrof-muhitga, ona tabiatga yanada e'tiborliroq bo'lishga, uning ne'matlarini avaylab-asrashga, boyliklardan oqilona foydalanishga chorlaydi.

Quyida bunday xayrli ishlarni faqat bayram kunida emas, doimo bajarishimiz lozim, deb hisoblaydigan tengdoshlaringiz maktublarini mavzuga moslashtirib, e'tiboringizga havola qilyapmiz.

Saida MASHRAPOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi

4-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

Sog'-salomat yashash uchun,

Tabiatni asraylik.

Zaharlardan, illatlardan,

Jamiyatni asraylik.

Tabiatni «ona» deymiz. Lekin uni har doim ham onalardek avaylab-ardoqlamaymiz. Aksincha, unga ziyon-zahmat yetkazamiz, jonivorlarini ovlaymiz, obi-hayot sanalmish suvni ifloslantiramiz. Musaffo osmonini zavod va fabrikalardan, mashinalardan chiqayotgan zaharli tutunlar bilan to'ldiramiz. Biz undan faqat olamiz. Unga ham mehr-muhabbat, e'tibor, parvarish kerakligini gohida unutib qo'yamiz. E'tiborsizligimiz oqibatida katta-katta daryolari qurib



TABIAT CHEKMASIN AZIYAT

qolsa ham xatoimizni to'g'rilashga oshiqmaymiz, biz insonlar.

Yaqinda ustozimiz Saltanat opa Lutfullayeva rahbarligida «Tabiat - chekmasin aziyat» deb nomlangan rasmlar ko'rik-tanlovini o'tkazdik.

Maqsadimiz - tengdoshlarimiz, uka va singillarimizni tabiatni asrashga chorlash edi. Tabiatga yetkazilayotgan zararlarni, o'z fikr va mulohazalarimizni mo'yoqalam orqali ifodalashga intildik. Tadbirda ishtirok etish niyatini bildirgan o'quvchilarning ko'pligi bizni juda quvontirdi. Maktabdoshlarimiz Nargiza Kalasboyeva, Nodir Jabborovlar chizgan rasmlar hech kimni befarq qoldirmadi. Ayniqsa, kichiktoylar rasmlarni zo'r



qiziqish bilan tomosha qilishdi. Ularning mehr uyg'ongan bo'lsa, ne ajab?! murg'ak qalblarida ona tabiatga

UKAMGA

Nur bir tomon, zulmat bir tomon.
Anglasam-da borliqni tugal.
Bo'zlagayman portlashlar qurbon,
Etgan ukam eslagan mahal!

Yaylovlarni ko'mar ko'chkilar,
Boisidir arshning farmoni.
Odamzoddan borliq o'ch olar,-
Meni ezar ukam armoni...

O'rmonlarga o't purkar bo'ron,
Yer tütatar shaharlarni ham.
Ne haqida qilsamda fig'on,
Bo'zlatadi aslida ukam...

Adiba SAIDZODA.


Madina ABDUSALOMOVA,

Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi 17-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi:

MAYNALAR BIZNIKIDA QOLISHDI

Mart oyining boshlari, borliqqa bahor nafasi taralayotgan kunlar edi. Uyimiz oldidagi keksa yong'oq daraxti shoxiga kelib qo'ngan bir juft mayna yoqimli ovozi bilan bizni tonggi uyqudan uyg'otdi. Ularning mayin qo'shig'ini sarmast tinglayotgandim, bir zumda uchib ketishdi. Qarasam, yana boshqa bir daraxtga qo'nib, «kuylash»ni davom ettirishdi. Oppoqdadamdan nima uchun u daraxtdan bunisiga ko'chib sayrashlari sababini so'radim. «Nima qilsak ular biznikida qolishadi?» desam, buvam, qushlar ish qurish uchun o'zlariga mos daraxt izlashayotganini, agar biz in qurib, daraxtga o'rnatib qo'ysak, inimiz ularga yoqsa, butun yoz biznikida qolishlari mumkinligini tushuntirdilar. «Tezroq in yasab bering, ular uchib ketishmasin» deya yolvordim buvamga. «Xo'p bo'ladi, ona qizim. Sen maktabdan kelguncha men in yasab qo'yaman», deya meni o'qishga kuzatdilar. Maktabdan kelsam

yong'oqning tagida yog'ochdan yasalgan uycha turibdi. Eshikchasi oldida ikkita qo'ndoqchasi ham bor edi. Ukam ikkimiz uni daraxtning baland bir shoxiga o'rnatib qo'ydik va qushlarning kelishini kuta boshladik. Bir-ikki kun ichida inga hech bir qush yaqin yo'lamadi. Kelganlari ham



Omonjon IBRAGIMOV,
poytaxtdagi 298-maktabning
2-sinf o'quvchisi.

uning atrofida aylanib-aylanib, uchib ketishardi. Hafsalamiz pir bo'lib, «inimiz qushlarga yoqmad-di» degan xayolga ham borgandik. Uchinchi kuni erta tongda bizni maynalarning quvnoq qo'shig'i uyg'otdi. Ukam ikkimiz apil-tapil kiyinib, hovliga otildik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, bir juft mayna inimizga «ko'chib kelibdi». Biri eshikchadan boshini chiqarib turibdi, ikkinchisi esa qo'ndoqqa qo'nib olibdi.

Sevinganimizdan qarsak chalib yubordik. Quvonchimizga oppoqdadam ham sherik bo'ldilar.

Maynalarimiz har tong yoqimli ovozda sho'x kuylab, bizga minnatdorchilik bildirishadi, go'yo.

Guljahon ATOBOYEVA,

Oqdaryo tumanidagi 20-maktabning 9-sinf o'quvchisi:

Tabiat... Qalbmimdagi bor mehrimni poyingga payvasta qilay. Bog'laringdagi turfa gullarning yoqimli shivir-shiviri, shalolalarning xuddi sho'x bolalar singari o'ynoqlab, shoshib-jo'shib oqishi, bulbullarning dilni erkalovchi mayin navosi, bari-bari orom beradi qalbmimga.

Tabiat... Seni dunyodagi eng ulug' zot - onalarga qiyoslagim keladi. Bu bejiz emas. Axir ona farzandi uchun

MEHRIM PAYVASTA QILAY

yashaydi. Sen ham xuddi shundaydan,

biz farzandlarindan o'z ne'matlarini ayamaysan. Bag'ringda mehringga qonib ulg'aymoqdamiz. Xo'sh, buning evaziga senga qanday minnatdorchilik bildiryapmiz? Hammamiz ham senga nisbatan oqilona munosabatda bo'lyapmizmi?..

Tabiat, sen insonlar yaralmasdan avval ham bo'lgansan. Lekin biz insonlar sensiz yashay olmaymiz. Shunday bo'lsa-da, qadringga doim ham yetavermaymiz. Ayniqsa, zilol suvlaringni ko'p isrof qilamiz. Orolingni quritib, bizni ogohlantirsangda, xulosa chiqarib ololmayapmiz. Ota-bobolarimiz suvga tufurishni og'ir gunoh bilganlar. Onalarimiz ariqdagi zilol suvlarda nonlarni oqizib yeganlar. Hozir esa...

Onalar farzandlarini doimo kechirib kelishgan. Ammo ona tabiat bizni kechirarmikin?..

Gulnoza ALIQULOVA,

Toshkent shahridagi 241-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

Suv - hayot, mo'l-ko'chilik, farovonlik manbai. Shunday ekan, uning qadriga yetishimiz, bir tomchisini ham isrof qilmasligimiz lozim.

O'z-o'zimizga bir savol berib ko'raylik-a:
bu bebaho ne'matning

SUV - OBI HAYOT

qadriga yetyapmizmi?

Nega avvallari shaldirab suv oqib turgan har bir ko'cha, uyning oldidagi ariqlar bo'm-bo'sh? Menimcha, isrofgarchilikka yo'l qo'yganimiz uchun tabiat bizdan o'ch olyapti.

Mana, intiq kutganimiz yozgi ta'til kunlari ham boshlandi. Tabiiyki, yozning issiq kunlarida suvga bo'lgan talab va ehtiyojlarimiz yanada ortadi. Kun tartibimizga suvni tejash rejalarini ham kiritsak. Nafaqat o'zimiz, balki oilamiz a'zolarining ham suvdan oqilona foydalanishlarini kuzatib, yon daftarchamizga yozib borsak. Bu boradagi maslahat va tajribalarimiz haqida sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga yozib yuborsak, juda xayrli ish bo'lardi.

Men ta'tilda gazetaga «Suv bebaho xazina», «Suvdek serob bo'ling» kabi maqollar asosida hikoya va insholar yozib yubormoqchiman. Sizlarni ham bu tashabbusga qo'shilishga chaqiraman.

O'LANI DARDGA DAVO

Tabiat - ona bizga,
Yaratgan-ku dunyoni.
Burchdir har o'g'il-qizga,
Asrash o'rmon, daryoni.
O'lani dardga davo,
Olma, zirku na'matak.
Sof bo'lsin desang havo,
Uni asramoq kerak.
Suvlari bo'lsa zilol,
Baquvvat bo'lar yurak.
Sof ko'kdan boqsa hilol,
Dilni quvnatar beshak.
Asraylik tabiatni,
Misli porloq xotira.
Bu muqaddas xilqatni,
Dildan o'chirma sira.

Kamola UBAYEVA.



Shoir Maxtumulning she'rlarini sevib o'qiyman, she'rlari asosida aytilgan qo'shiqlarni maroq bilan tinglayman. Shuning uchun ham katta bo'lsam, yo qo'shiqchi, yo shoir bo'laman, deb yurardim. Lekin bir voqea sabab bo'ldi-yu, kelajak rejalarim butunlay o'zgarib ketdi.

MAXTUMQULI SHE'RLARI SHAYDOSIMAN

Anchadan buyon onamning oshqozoni og'rib yurardi. Uy yumushlari, bola-chaqa deb davolanishga ham fursat topolmasdilar. O'tgan yili to'satdan og'irlashib qoldilar. «Tez yordam» chaqirgan edik, shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga olib ketib, jarrohlarning zudlik bilan operatsiya qilishdi. Mohir shifokor, tibbiyot fanlari doktori Bozorboy Altayev onajonimni bir o'limdan asrab qoldilar, desam xato qilmayman. Hozir onajonimning ahvoli ancha yaxshi. Goh-gohida kimyoterapiya shifokori. Shuhrat aka Ikromov, hamshiralar Zulfiya va Arofat opalarim muolajalarni o'z vaqtida qilib, davolab kelishmoqda. Oyijonim esa ularni nuqul duo qiladilar...

Ularga astoydil havasim keldi va men ham ulg'aygach shifokor bo'lishga ahd qildim. Shoir yoki qo'shiqchi bo'lish o'z yo'liga. Lekin shifokor bo'lib, bemorlar dardiga malham bo'lish, inson salomatligini muhofaza qilish koni savob kasbda, axir. Buning uchun esa a'lo baholarga o'qib, puxta bilim olishim lozimligini, hozirdanoq o'zimda shu kasb egalari xos bo'lgan xislatlarni tarbiyalab borishim lozimligini ham yaxshi bilaman. Hozir o'qishlarim yomon emas. A'lochi sinfdoshlarim Abdunabi Isamatov, Husniyor Abdurashidov, Sevara Mamatova, Durdon Abdunabiyevlar bilan birgalikda dars tayyorlaymiz. Mahalladagi o'rtoqlarim Sardor, Temur, Abdulla, Ruslanlar bilan uyimiz atrofini supurib-sidirib, ozoda saqlashga harakat qilamiz. Chunki ustozimiz Saodat opa Yo'ldoshevaning «ozodalik - inson salomatligining garovi» degan o'gitlarini o'zimizga shior qilib olganmiz-da!

Jamshid AHMADALIYEV,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
282-maktabning 3-«B» sinf o'quvchisi.

OQ XALAT KIYMOCCHIMAN



Maktabimizda bitiruv kechasini o'tkazishga barcha sinflar o'ziga xos tayyorgarlik ko'ribdi. Ularning birma-bir chiqishlari katta tantanaga aylanib ketdi. Masalan, bizning sinfimiz «2005 - sihat-salomatlik yili»ga bag'ishlab «Sog'ligim-boyligim» nomli ko'rinish tayyorladi. Unda Reymajon Sobirova, Odambay Norboyev, Rasulbek Niyozmetov, Dilafro'z Do'schanova, Qalandar Otoboyev kabi qator sinfdoshlarim faol ishtirok etishdi. Tishi og'rib qolgan bola rolini ijro etgan Odambay barchani kuldirdigan bo'lsa, kasalmand onaning iztiroblarini aks ettirgan Dilafro'z esa

tomoshabinlarni larzaga soldi. Ularga yordamga shoshgan «shifokor»larni ko'rib hattoki qarsak chalib yubordik. Chunki sinfdoshlarim o'z rollarini shunday mahorat bilan ijro etishdiki, tomoshani ko'rgandan keyin shifokor bo'lishni orzu qiladiganlar soni ko'payib ketdi. Ustozimiz Anorgul opa Matmuradova sevinib, faol va a'lochi o'quvchilarga Faxriy yorliq topshirdilar.

Oymonjon PIRNAZAROVA,

Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 10-maktabning 2-«A» sinf o'quvchisi.

«2005 - Sihat-salomatlik yili»

Bizning oilamiz eng baxtli oilalardan biri desam adashmayman. Chunki barcha oila a'zolarimiz shifokor bo'lib ishlashadi. Dadajonim Abduaziz aka poytaxtimizdagi ko'zga ko'ringan shifokorlardan biri. Biri-biridan mehribon ammalarim ham shu

SHIFOKORLAR OILASI

sohani tanlashgan. Bemorlar uyimizgacha dadamni so'rab kelishadi. Ular garchi ishdan toliqib kelgan bo'lsalar-da, yordam istab kelgan kishilarning dardiga darmon bo'ladilar. Oyijonimning aytishlaricha, ular ham yoshliklaridan shifokor bo'lishni juda-juda istagan ekanlar. Lekin taqdir taqozosi bilan o'qituvchilik kasbini egallaganlar. Ular hozir shahrimizdagi 129-maktabda yosh avlodga bilim berish bilan bandlar. Men mana shunday ziyoli, insonlar dardiga malham bo'ladigan oila farzandi ekanligimdan faxrlanaman. Men ham kelajakda bolalar shifokori bo'lmoqchiman. Xalqimizning sog'-omon bo'lishida oilamizning ham o'zina bo'lsa-da, foydasi tegayotgani meni juda quvontiradi.

Nargiza TO'LAGANOVA,
poytaxtning Akmal Ikromov tumanidagi 193-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi.



Marat Olimov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan, xalqaro toifadagi sport ustasi. 30 dan ziyod turnirlar hamda butunjahon musobaqalari qatnashchisi. 10 karra mamlakat chempioni. Do'stlik kubogi sovrindori. Og'ir atletika bo'yicha mahalliy va xalqaro toifadagi hakam.

Maqolamiz qahramoni Marat aka asli shifokorlar va o'qituvchilar sululasidan. U kishining sport olamiga qanday kirib kelganlari bilan qiziqdik va bugungi kunda Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi sport maktabining eng keksa murabbiyi hisoblangan faxriy ustozni suhbatga chorladik:

Murabbiylar o'giti

Shukrkim, ikkimizning ham niyatlarimiz ijobat bo'ldi. Murabbiyim Najmiddin Safarovdan og'ir atletika saboqlarini qunt bilan o'rgandim. Aslo dangasalik qilmadim. Shijoatli, sabr-bardoshli kishilar sport bilan shug'ullanishini anglab yetgandim. Yillar davomida sport shunchaki ermak yoki havas emas, u mening hayot yo'lim,

SPORTGA BAXSHJDA UMR

-Aziz bolajonlarim, sport olamiga kirib kelganimga ham 40 yildan oshibdi. Hayotda sport yo'lini tanlab xato qilmagan ekanman. Hozir yoshim 65 da. Lekin 20 yoshli yigitlardek kuchim bor, desam ishonaverim. Chiniqqanman, musobaqalarda toblanganman.

Sizlarga boqsam, bolalik yillarim yodimga tushib ketaveradi. Juda yoshlik chog'imizdanoq akam ikkimiz tinmay badantarbiya mashqlarini bajarardik. Maktabdagi o'qishlarimiz ham a'lo edi. Bo'sh qoldik deguncha, turli sport mashg'ulotlari bilan band bo'lardik. Akmal akam bilan ulg'aygach, mohir jarroh bo'lishni niyat qilardi. Men esa «zo'r sportchi bo'laman» derdim.

umrim mazmuniga ham aylanib borayotganiga amin bo'ldim.

Shogirdlarimga boqib, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga havasim keladi. Ularning shashtida, g'ayrat va shijoatida sportimizning ertangi yorug' kunini ko'raman. Ammo vaqtini behudaga sarflayotgan maktab o'quvchilarini kuzatganimga, ularning jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan hamda ota-onalaridan ranjiyman. Ko'pgina maktablarda jismoniy tarbiya darslari xo'ja ko'rsingagina o'tilishini eshitib, xafa bo'lib ketaman. Shunday maktablarning rahbarlari sport - salomatlik garovi, barkamollik ildizi ekanligini nahot bilishmasa?..



Yurtboshimiz jon kuydirib, nega aynan «Bolalar sporti»ga katta e'tibor qaratmoqdalar? Buning zamirida nimalar yotgani haqida jiddiy o'ylab ko'rsalar bo'lardi.

Mening jajji sportchi o'g'il-qizlarim! Salomatligingiz o'z qo'lingizda ekanligini aslo unutmang. Sport bilan yoshlikdanoq do'stlashing. Hozirgi muntazam sport mashqlaringiz sog'lom va barkamol hayotingizga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishiga aminman.

Nodira MUHAMEDOVA.



BOLALAR SPORTI

Sportsevar bolajonlar, xabaringiz bor, shu yil 24-mayda Toshkent viloyati, Chirchiq shahrining Markaziy o'yingohida

Davlatimiz madhiyasi yangradi. So'ng davraga mash'ala ko'targan ikki nafar sportchimiz kirib keldi. Ular kimlar, deysizmi?

Odatda bunday mash'alani sportda ulkan yutuqlarga erishgan sportchi yoshlar ko'taradilar. Bu yilgi sharaflini mash'alani olib yurish yoshlar orasida 2 karra jahon chempioni Ilhom Karimov va Xalqaro toifadagi sport ustasi

«Kichik Olimpiada» deb nom olgan bu nufuzli musobaqaning hayajonli onlari mash'alaning yoqilishi bo'ldi. Bolajonlar, siz yaxshi

boqar ekanmiz, yurt jamoalarining 2170 nafar o'quvchilari sportning 13 turida kuch sinashadilar. Darvoqe, gazetamizning o'tgan sonida ushbu musobaqalar sportning 15 turi bo'yicha bo'lib o'tadi, deb yozgan edik. Musobaqa

«UMID NIHOLLARI» DAN «UNIVERSIADA» GA YO'L

bilasiz, bu mash'ala oddiy olov emas. U tabiiy quyosh nurlaridan nur olib yondiriladi. Bu jarayon an'anaga ko'ra Parkent tumanidagi O'zbekiston Fanlar akademiyasi «Fizika-Quyosh» ishlab chiqarish birlashmasida tashkillashtirildi. 24-may kuni alanga oldirilgan mash'ala bog'-u rog'larni, bir necha qishloqlarni kezib o'tdi. Nihoyat 75.5 km masofani bosib o'tgan mash'ala Chirchiq shahriga, yetib keldi. Ana shunday tantanali va mas'uliyatli ishni a'lo darajada bajargan O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti bu ishni sidqidildan bajara oldi. Mash'alaning shukuhli nuriga



bo'lish O'zbekiston yoshlarini birdamlikka, hamjihatlikka chorlaydi.

Toshkent viloyati mezbonlik qilgan musobaqaning final bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahar

boshlanishidan sal avval esa dasturga bir oz o'zgartirish kiritildi. Ya'ni, mini-futbol va og'ir atletika sport turlari dasturdan chiqarildi.

Aziz bolajonlar, bugungi musobaqalarda qatnashayotgan aka va opalaringizni sizlar yaxshi bilgan «Umid nihollari» sport musobaqasi chiniqtirdi. Natijalarga ko'ra «Barkamol avlod-2005» sport musobaqalarida I-o'rin Andijon viloyati, II-o'rin Toshkent shahri, III-o'rin Toshkent viloyati sportchi yoshlariga nasib etdi. Endilikda ularni «Universiada»dek nufuzli musobaqalar kutmoqda.

Ma'mura
MADRAHIMOVA.

SPORT VA GO'ZALLIK BAYRAMI

kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari o'quvchilarining «Barkamol avlod-2005» sport o'yinlari respublika bosqichining tantanali ochilishi marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimni Toshkent viloyati hokimi Kozim To'lagonov kirish so'zi bilan ochdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning musobaqa qatnashchilariga yo'llagan tabrigini Prezidentning Davlat maslahatchisi Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi. Shundan so'ng, musobaqa ishtirokchilari qasamyod qabul qildilar.

Muhtasham maydon uzra

Diana Mirzarahmonovaga nasib etdi.

Mash'ala yoqildi. Bellashuvlarga start berildi. Mash'alaning nuri go'yo ko'zlarga quvonch, qablarga jo'shqinlik olib kirgandek edi..

Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan ushbu musobaqalar 29-maygacha davom etdi.

Yoshlik, shijoat, sport va nafosat bayramida iqboli baland O'zbekistonimizni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar yangradi. O'zbek estradasining va sport yulduzlarining badiiy chiqishlari musobaqa ishtirokchilariga ko'tarinkilik baxsh etdi.

– Nigoraxon, «Bilag'on» gazetasi tarixi o'quvchilarni ham qiziqtiradi. Suhbatimiz boshida ana shu haqda ma'lumot bersangiz.

– «Bilag'on»ning tarixi 2001-yil 17-sentyabrdan «Erudit» gazetasi maxsus soni «Erudit-Bilag'on» bo'lib nashr etilgan. O'sha vaqtda gazeta 16 sahifada chop etilar edi. Keyinchalik «Erudit» gazetasi

Boshqotirma-yu skanvordlarga boy bo'lgan «Bilag'on» gazetasi respublikamizdagi yagona nodavlat nashr bo'lib, lotin yozuvida chop etilishidan xabardor bo'lsangiz kerak-a? Bugun «Bilag'on»ning muharriri Nigora Adizova sahifamiz mehmoni:

kupon orqali bildiradilar. Kichikintoy bilag'onlarimiz uchun «Evrika», «Hello English» sahifalari chop etiladi.

– Demak, muxlislaringiz fikrlarini kupon orqali ham bilib olasiz, shundaymi?

– Albatta, gazeta sahifalarida o'quvchilar uchun alohida kuponlar berilgan. Unda bir nechta savollar mujassam bo'lib, bu savollarga biz

– Boshqotirma, krossvordlarning o'quvchi uchun qanday ahamiyati bor deb o'ylaysiz?

– Bola shunchaki ma'lumot o'qisa zerikib qoladi. Shuning uchun tarix, geografiya, ona tili, adabiyot va boshqa fanlar haqidagi savollarni umumlashtirib, krossvordlar tuzamiz. Bunday krossvordlarni yechgan bola o'ylashga, izlanishga harakat qiladi. Bu jarayonda bolalar hatto kitob ochib javob izlashga ham kirishib ketadilar.

– Krossvordlarni to'g'ri yechgan o'quvchilarni rag'batlantirib tursangiz ham kerak-a?

– Albatta. Krossvordlarni to'g'ri yechgan o'quvchilarga maxsus sovg'alarimizni topshiramiz. G'oliblarning ism-familiyalari gazeta sahifalarida muntazam berib boriladi. Yana gazeta orqali tanlovlar e'lon qilganmiz. G'oliblarining nomlari ham gazetada e'lon qilinadi. Bu ham ularni ruhlantiradi, degan fikrdaman.

– Boladagi iste'dodni o'stirish uchun ularga qanday munosabatda bo'lasiz?

– Avvalo ulardan oladigan birorta maktubni ham e'tibordan chetda qoldirmaymiz. Bola she'r yozdi. Bu she'r balki uning ilk ijodidir. Balki bu she'rni hali gazeta sahifalarida chop etib bo'lmas. Lekin muxlis umid bilan bizga yubordi. Agar biz she'rga e'tibor berib, uni ishlab, gazetada e'lon qilsak, kelajakda shu boladan katta shoir chiqsa ham ajab emas. Aksincha, she'r hali mukammal emas, deb e'tibor bermasak, o'quvchining umidi puchga chiqadi. Bu bilan uning iste'dodini sindirib qo'yishimiz mumkin.

– Raqobatdoshingiz «Tong yulduzi»ga munosabatingiz?

– «Tong yulduzi» O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining yagona gazetasi. Bu gazetaga faqat ijobiy munosabatdamiz. Chunki u bilan maqsadimiz bir. Bu ezgu maqsad ikki gazetani do'stlik rishtalari bilan bog'lab turadi, deb o'ylayman.

– Suhbatigiz uchun rahmat.

G.ORIFJONOVA suhbatlashdi.

ISTE'DODSIZ BOLAJONNING O'ZI YO'Q

ajralib chiqib, 2004-yil 7-oktyabrdan mustaqil gazeta sifatida «Bilag'on» nomi bilan chiqq boshladi. Hozirgi kunda gazeta 24 sahifada «Bilag'on+Tengdosh» ko'rinishida chop etilmoqda. Bugungi kunda gazeta butun respublika bolalarini, kichikintoylardan tortib, katta sinf o'quvchilarigacha (kollej talabalarini ham) o'ziga jalb qila olgan bo'lib, 3500-4000 nusxada chop etiladi.

– «Bilag'on» ijodkorlarining ish faoliyatlari, asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

– Ijodiy guruhimiz uch kishidan iborat. Bosh muharrir, muxbir Iroda Jumanazarova va dizayner Kamol Mutaliboyev. Gazeta ijodkorlarining asosiy maqsadi yosh iste'dodga o'z so'zini aytishga imkon berishdir. Negaki, iste'dodsiz bolaning o'zi bo'lmaydi. Muhimi, undagi o'sha iste'dodni vaqtida payqay olish. Biz esa bunday ulug' vazifani bajarayotganimizdan juda mamnunmiz.

– Gazeta sahifalaridagi ruknlar muxlislarni qiziqitira olyaptimi?

– Kelayotgan maktublarga qaraganda, bu savolingizga «ha» deb javob berishim mumkin. Sahifalar boshdan-oyoq muxlislar ijodiy ishlaridan tayyorlanadi. «Salom, salom, salom!» sahifasida muxlislarimiz hayotidagi eng so'nggi xabarlar (maktabdagi tadbirlar, jamoatchilikdagi yutuqlari va hokazo), «Tengdoshingiz ijodidan» sahifasida o'quvchilarning ijodidan namunalar, «Sirlashamiz» sahifasida gazetxonlar hech kimga ayta olmagan voqealarni so'zlab, tengdoshlari bilan sirlashadilar. Boshqa muxlislar esa bu voqeaga o'z fikr-mulohazalarini

o'quvchilardan javoblar olamiz. Javoblardan muxlislarimizga qaysi sahifa ko'proq yoqyapti, ularning gazeta haqidagi ijobiy va salbiy fikrlari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. O'quvchilarning fikriga qarab kerak bo'lsa gazeta sahifalariga o'zgartirishlar kiritamiz.

– «Bilag'on»ga kelayotgan maktublarga munosabatingiz?

– Bolalar bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari mavjud. Bola bilan ikki tomonlama ishlashni ma'qul ko'rdik. Bizga ulardan kuniga o'nta-yigirmatalab xatlar keladi. Bundan juda xursand bo'laman. Maktublarning aksariyat qismini ota-onalardan, o'qituvchilardan olamiz. Ular o'z xatlarida rahmat ham aytishadi. Bundan kimgadir kerakligimizni anglab, o'zimizni baxtiyor sezamiz. Bizga eng ko'p maktub yo'llagan faol muxlislarimizni gazetamizning maxsus muxbirlari deb e'lon qilganmiz. Ular – G'ayrat Sultonov Jizzax shahridan, Nargizaxon Rahmonova Bekobod shahridan, Dilafro'z Bahriddinova Navoiy shahridan. Shuni aytishim kerakki, Navoiy viloyatidan juda ko'plab maktublar olamiz. Mayli, u maktub tanqidiy bo'lsin, yoki minnatdorchilik maktubi bo'lsin. Lekin bola o'z fikrini maktub orqali ifodalamoqda. Bu esa uning gazeta o'qiyotganidan dalolatdir.



O'qishlarni tugatib, yozgi ta'tilga ham chiqib oldingiz-a aziz o'quvchilar? Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» ham siz bilan birga ta'tilga chiqmoqchi. Qanday qilib, demak gazeta uch oy chiqmas ekan-da, deyatotgandirsiz? Xulosa chiqarishga shoshilmang. Gazeta avvalgidek muntazam chiqib turadi. Faqat uning sahifalaridan o'qish, ta'limga oid jiddiy maqola, lavha va xabarlarga kamroq, «Kunlardan bir kun», «Mening bo'sh vaqtim», «Keling, tanishaylik», «Bizning to'garak», «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir», «Maktabdagi muhabbat», «Qulog'ingga gapim bor» kabi ruknlar ostidagi qiziqarli hikoya, she'rlarga, ichakuzdi hangoma-yu xandalarga, boshingizni obdon qotiradigan boshqotirmalarga ko'proq o'rin beriladi, demoqchimiz xolos.

Quyida tengoshlaringiz hayotlarida ro'y bergan yodda qolarli, ta'sirli, qiziqarli hikoyalarni e'tiboringizga havola qilyapmiz. Ularni o'qib, nafaqat sizning, ustozlaringiz, otionalaringiz, buva va buvilaringiz, aka-opalaringiz yodiga kulguli voqealar tushib ketsa, ajabmas. Shunda darhol qo'lingizga qog'oz, qalam olib, ularni bizga yozib yuboring.

Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Chinobod ko'chasi:

- Bolaligimda sodir bo'lgan bir qiziq voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Uni

TELEVIZOR HANGOMASI

farzandlarimga - «Tong yulduzi» muxlislariga ham so'zlab bergim keldi:

Hayotimizga televizor endi-endi kirib kelayotgan, u mahallamizdagi sanoqli xonadonlardagina bor bo'lgan damlar edi. Xolalarimdan birining televizor sotib olganini eshitib, buvim ikkimiz ulamkiga otlandik.

Barcha xolalarim men tengi o'g'il-qizlari bilan kelib, sandal atrofidan joy olishibdi. Qo'ni-qo'shnilar ham chiqishibdi. Biz ham ularning safiga qo'shildik. Buvimning yoniga o'tirib, televizor tomosha qila boshladim. Avvaliga bitta multfilm tomosha qildik. Keyin esa bir ayol chiqib, allanimalar deb gapira boshladi.

Xolalarimdan biri, namuncha bu ayol senga qarab gapiraveradi, deb qoldilar. E'tibor bersam, haligi ayol haqiqatan ham nuqul menga qarab gapirayotganga o'xshardi. Ko'zlarimni yumib, buvimning ortiga

boshimni yashirib oldim. Birozdan keyin asta mo'ralasam, yana shu ahvol. G'alati bo'lib ketdim. So'zlari qulog'imga kirmay qoldi. Uni chalg'itmoqchi bo'lib, o'rnimdan turib uyning u boshidan bu boshiga yura boshladim. Yopiray! Qayoqqa bormayin uning ko'zi menda. Tavba, nima, u meni kuzatyaptimi? Qo'rqa boshladim. Tashqariga chiqib, derazadan qarasam uning nigohi hamon menda.

Hovlida biroz yurdim. «Endi albatta boshqa odamga qarayotgandir» degan o'yda shoshib eshikni ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ayol hech narsa bo'lmagandek menga qarab gapini davom ettiryapti-da. Charchadim.

- Nega hadeb menga qarayveradi? - so'radim buvimdan yig'lamsirab...

Shunda hammalari baravariga qah-qah urib kulib yuborishdi.

- Hammaga shunday ko'rinadi, bolam, - dedilar buvim o'zlarini kulgudan bazo'r tiyib.

Shundan so'nggina hayajonim biroz bosildi.



Yodgora AHMEDOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 30-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi:

Agar ammam kelsalar, uyimizda bayram bo'lib ketadi. Chunki ular bizga ko'plab ajoyib g'aroyib voqealarni so'zlab beradilar-da...

Bu safar ham shunday bo'ldi. Kechki ovqatdan so'ng ammamning atrofini o'rab olib, bolalik damlarida bo'lib o'tgan bir voqeaga quloq tutdik:

- Qish kunlarining birida g'ira-shira pallada mahallamiz bolalari bilan

berkinmashoq o'ynayotgandik. Bir notanish odam kelib, aylanma yo'lga qanday borsa bo'ladi, deb so'rab qoldi. To'g'ri yurib, keyin o'ngga burilasiz, deya javob berdik-da, yana davom ettiraverdik. Oradan biroz chiyabo'rilarining dahshatli chiyillashlari eshitilib ketdi. O'sha paytlarda aylanma yo'l yoqasidagi tutzorlar orasida chiyabo'rilar gala-gala bo'lib yashashardi. O'yinga azbaroyi berilib ketganimizdan haligi odamga chiyabo'rilar borligini aytish yodimizdan ko'tarilganidan juda afsuslandik.

Oradan yillar o'tdi. Bu ko'ngilsiz voqea o'rtoqlarim yodidan ko'tarilib ham ketdi. Lekin men uni hali-hanuz unutolmayman, vijdonim qiynalaveradi...

KO'NGILSIZ VOQEA

o'yinimizni

muddat o'tgach haligi odam ketgan tarafdin tutzorlar orasida chiyabo'rilar gala-gala bo'lib yashashardi. O'yinga azbaroyi berilib ketganimizdan haligi odamga chiyabo'rilar borligini aytish yodimizdan ko'tarilganidan juda afsuslandik.

Oradan yillar o'tdi. Bu ko'ngilsiz voqea o'rtoqlarim yodidan ko'tarilib ham ketdi. Lekin men uni hali-hanuz unutolmayman, vijdonim qiynalaveradi...

G'ulomjon VASILOV,

Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Chinobod ko'chasi:

- Bolaligimda sodir bo'lgan bir qiziq voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Uni

TELEVIZOR HANGOMASI

farzandlarimga - «Tong yulduzi» muxlislariga ham so'zlab bergim keldi:

Hayotimizga televizor endi-endi kirib kelayotgan, u mahallamizdagi sanoqli xonadonlardagina bor bo'lgan damlar edi. Xolalarimdan birining televizor sotib olganini eshitib, buvim ikkimiz ulamkiga otlandik.

Barcha xolalarim men tengi o'g'il-qizlari bilan kelib, sandal atrofidan joy olishibdi. Qo'ni-qo'shnilar ham chiqishibdi. Biz ham ularning safiga qo'shildik. Buvimning yoniga o'tirib, televizor tomosha qila boshladim. Avvaliga bitta multfilm tomosha qildik. Keyin esa bir ayol chiqib, allanimalar deb gapira boshladi.

Xolalarimdan biri, namuncha bu ayol senga qarab gapiraveradi, deb qoldilar. E'tibor bersam, haligi ayol haqiqatan ham nuqul menga qarab gapirayotganga o'xshardi. Ko'zlarimni yumib, buvimning ortiga

boshimni yashirib oldim. Birozdan keyin asta mo'ralasam, yana shu ahvol. G'alati bo'lib ketdim. So'zlari qulog'imga kirmay qoldi. Uni chalg'itmoqchi bo'lib, o'rnimdan turib uyning u boshidan bu boshiga yura boshladim. Yopiray! Qayoqqa bormayin uning ko'zi menda. Tavba, nima, u meni kuzatyaptimi? Qo'rqa boshladim. Tashqariga chiqib, derazadan qarasam uning nigohi hamon menda.

Hovlida biroz yurdim. «Endi albatta boshqa odamga qarayotgandir» degan o'yda shoshib eshikni ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ayol hech narsa bo'lmagandek menga qarab gapini davom ettiryapti-da. Charchadim.

- Nega hadeb menga qarayveradi? - so'radim buvimdan yig'lamsirab...

Shunda hammalari baravariga qah-qah urib kulib yuborishdi.

- Hammaga shunday ko'rinadi, bolam, - dedilar buvim o'zlarini kulgudan bazo'r tiyib.

Shundan so'nggina hayajonim biroz bosildi.

Shahnozabonu ABDIRIMOVA,

TDIU qoshidagi iqtisodiyot gimnaziyasining 5-«G» sinf o'quvchisi:

ISIRIQ YONIB KETDI

- Bir kuni maktabimizning 11-sinf o'quvchilari ertalik o'tkazishdi. Unda «Chimildiq» pyesasidan parcha ham namoyish etishdi. Kelinning oldiga isiriq olib kelinadigan sahna ko'rinishi namoyish etilayotgandi. Birdan xokondozdagi isiriq alangalanib, yonib ketdi. Zumda sahnani qop-qora tutun qoplab oldi. Olovni bir amallab o'chirishdi. Qarasak, kelinning tagiga to'shalgan ko'rpacha va gilamga ham cho'g' tushib, yona boshlagan ekan. Kelin rolini ijro etgan Muqaddas ismli qiz qattiq qo'rqib ketibdi. Shu voqea sabab bo'ldi-yu, keyinchalik sahna ko'rinishlarida olov zarur bo'lib qolsa, chizilgan rasmlardan foydalanadigan bo'ldik.



INOYATXON,

poytaxtdagi 162-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

QARZ BERSANG, KECHIB BER

- Bobojonim juda mehribon, ochiqko'ngil inson edilar. O'limlaridan avval menga bir voqeani so'zlab bergandilar.

Ularning qirg'iz millatiga mansub bir cho'pon og'aynilari bo'lib, juda qalin do'st tutinishgan ekan. Urushdan keyingi yillarda o'sha odamning davlatga tegishli bo'lgan bir necha qo'ylari nobud bo'libdi. Boshiga tushgan musibatning chorasini topolmay bobomdan yordam so'rashga majbur bo'libdi. Garchand bobomning sharoiti ham ancha og'ir bo'lsa-da, o'z yordamlarini ayamabdilar. Qarzga emas, shunchaki bor pullarini berib yuboribdilar. Chunki bobom «qarz» degan so'zni juda yomon ko'rardilar. «Qarz bersang, kechib ber. Kecholmasang, unda bermay qo'yaqol» derdilar doim...

Oradan yillar o'tibdi. Qirg'iz og'aynilari, agar do'stimning pulini qaytarib bersam, u mendan juda xafa bo'ladi, deb bobom uchun ikkita qo'y atab qo'yibdi. Qo'ylari o'zidan ko'payibdi. Har yili bolalaganda, bobomga minnatdorchilik sifatida ikkitadan qo'y tashlab ketishni odat qilirdi. Mana, oradan 40 yil o'tsa hamki, bobom ham, do'sti ham olamdan o'tib ketishgan bo'lsa-da, bobosining vasiyatiga amal qilgan qirg'iz kishining o'g'illari hamon bobomning o'g'li, ya'ni tog'amnikiga har yili ikkitadan qo'y tashlab ketaverishadi...



Mehr-oqibat rishtalari uzilmaydi, deganlari shu bo'lsa kerak-da.



1. Alisher Navoiyning 88 ta xat jamlagan asari. 2. Navoiyning «tun», «tungi» ma'nosini bildiruvchi asar qahramoni. 3. Biror xayrli ishning sarf-xarajatini ta'minlash uchun ajratilgan yer yoki mulk haqidagi asari. 4. Farhodning yori. 5. Xazoyinul ma'oniyning 4-devoni. 6. «Xamsa»ning 1-dostoni. 7. Adabiyotshunoslikka oid asari. 8. Besh dostonidan iborat asar. 9. Fors tilidagi dostoni. 10. Ruh qushi haqidagi asar. 11. «Xamsa»ning beshinchi dostoni. 12. Majnunning asl ismi.

Tuzuvchi: Abdumalik AHMATOV,

Navoiy viloyati, Navoiy shahardagi 15-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.

Samimiylik kamdan-kam odamda uchraydigan ro'yxushlikdir; odatda ko'z-ko'z qilingan samimiylik ko'pincha atrofdagilarning ishonchini qozonishga qaratilgan mug'ombirlik bo'lib chiqadi.

F. LAROSHFUKO

Fransuz yozuvchisi Fransua de Laroshfukoning samimiyat haqidagi ushbu fikriga oz-moz qo'shimcha qilmoqchimiz. To'g'ri, samimiylik kamdan-kam insonlarda uchrasa-da, ammo bu fazilat bolajonlarda o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Ulardagi

qalbli, ishonuvchan bolalar yolg'on gapirishni ham bilmaydilar. Albatta ular ulg'aygan sari bu kabi fazilatlar yo'qolib boradi. Nima deb o'ylaysiz, sizda bu kabi fazilatlar haligacha saqlanib qolganmi?

-Ishonuvchanlik va beg'uborlik tabiatimga xos xislat. Lekin yolg'on gapirishga kelganda, agar yaxshilik uchun bo'lsa o'zimni tiya olmayman.

-Bolaligingizda onangiz uchun qilgan birinchi yaxshiligingizni eslay olasizmi?

-Eslay olaman. Bu yaxshilik bir umrga yodimda saqlanib qolgan, desam adashmayman. Bir kuni oyim ukam ikkimizni ustimizdan

bo'lganmiz. Hamma ishni o'ylab qilish kerakligini o'shanda bilganman.


-Kuylayotgan qo'shiqlaringiz orasida bolajonlar uchun atalgani ham bormi?

-Hozircha yo'q. Lekin bolalar uchun qo'shiq kuylashni rejalashtirib qo'rganman. Bu qo'shiq boshqa qo'shiqlarga o'xshamasligi, bolajonlar uchun kutilmagan sovg'a bo'lishi shart. Chunki bolalar mening jonu dilim.

-Oilangizda san'atkorlar bormi?

-Nafaqat oilamizda, balki avlodimizda ham san'atkorlar yo'q.

-Siz san'at olamiga endigina



qarataman. She'ming mazmuniga, so'z boyligiga ahamiyat beraman. Umida Abduazimova, Bobur Bobomurod, Turob Niyoz ijodlari menga yoqadi. Yaqinda o'zim ham bir she'r yozdim. Uni «Baxt va

ONASIGA KO'YLAK TIKKAN XONANDA

samimiyat kishi ko'zi uchun emas, aksincha ruhiyat, kayfiyatdan kelib chiqqan holda yuzaga chiqadi.

Bolalardagi ana shu fazilatni qadrlovchi, ularning barini, xoh qiz, xoh o'g'il bo'lsin birdek ko'ruvchi Ulug'bek Rahmatullayev - Siz aziz bolajonlar bilan yaqindan tanishish uchun tahririyatimizga tashrif buyuribdilar. Avval bu yosh xonandani sizlarga tanishtirib o'tsak:

Ulug'bek Rahmatullayev - 1982-yilning 29-yanvarida tug'ilgan. 2004-yilda Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining Markaziy Osiyo xalqlari tarixi fakultetini tamomlagan. Yoshligidan san'atga qiziqadi. Shu kungacha uning «Yorim», «Suygan edim», «Sevma», «Baxt va boylik» nomli qo'shiqlari muxlislari e'tiboriga havola etilgan. Hozirda yangi qo'shiqlari ustida ish olib bormoqda.

-Ulug'bek, bolalar dunyosiga nazar tashlasak, uning o'ziga xosligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Beg'ubor

qulflab ketdilar. Ukam bilan nima qilishni bilmay televizor ko'ra boshladik. Shunda juda qiziq bir ko'rsatuvni ko'rib qoldik. Ushbu ko'rsatuv olib boruvchilari

kirib kelyapsiz. Bir necha yillardan so'ng mashhur bo'lib ketgan Ulug'bek Rahmatullayevni qanday tasavvur qilasiz?

-Shuhratparastlik bizni aql bovar qilmas darajada xohishimizga qarshi harakat qilishga majbur etadi, degan edi bir alloma. Mashhurlikning insonga ta'siri turlicha bo'ladi. Hali bu narsa boshimdan o'tmagan. Mashhur bo'lib ketsam, har qanday sharoitda ham

o'zimni qo'lga olib ish ko'rishga harakat qilaman. Insonlar nazariga tushgan har qanday odamga mashhurlik, shuhratparastlik oz bo'lsa-da soya soladi. Lekin bu soyaning tagida qolish ham, soyadan uzoqda yurish ham kishining o'ziga bog'liq, deb o'ylayman.

-Qo'shig'ingizga matn tanlashda nimalarga e'tibor berasiz?

-Musiqqa va she'r satrlari bir-biriga uyg'un bo'lsa, qo'shiq ko'nglimdagidek chiqadi. Avvalo she'r matniga e'tiborimni

boylik» deb nomladim. Musiqasini ustozim, bastakor Farruh Badalboyev bastaladilar. Bu sherimni hayotdan ta'sirlanib yozganman. To'g'rirog'i, bir do'stimning hayotini she'rda tasvirladim.

-O'zbek san'atkorlaridan, ya'ni xonandalardan kimlarni tinglaysiz, ular orasida do'stlaringiz ham bo'lsa kerak?


-«Bolalar» guruhi qo'shiqlarini yoshligimdan sevib tinglayman. Negaki, bu guruh ijodi sira «qarimaydi». Yana Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayeva, Umida Mirhamidova, Ozodbek Nazarbekov ijodlari menga ma'qul bo'ladi. Sardor Rahimxon bilan yaqin do'stmiz desam, mubolag'a qilmagan bo'lamen.

-Kelgusi rejalaringsiz?

-Shu kunlarda yosh xonanda Sardor Rahimxon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasida konsert berishni rejalashtirganmiz.

-Maroqli suhbatingiz uchun tashakkur. Sizdan yangi-yangi bolalarbop qo'shiqlar kutib qolamiz.

Suhbatdosh Gulyuz BAHODIR qizi.



qo'llarida kerakmas matodan shunday chiroyli ko'ylak tikdilar, beixiyor... Men shkafdan oyimning eng chiroyli, qimmatbaho matolarini olib, ular uchun ko'ylak tikmoqchi bo'ldim. Bu bilan ularga yaxshilik qilmoqchi, ko'ngillarini olib, quvontirmoqchi edim. Ukam ikkimiz shkafdan matoni olib kesdik va o'zimizcha ko'ylak tikdik. Oyim kelganlarida bu ko'ylakni ularga sovg'a qilgandik... Ana tomosha-yu mana tomosha. Ikkinchi oyimga bunday «yaxshilik» qilmaydigan

KETMAS BO'LIB KELSAYDI...

Kunlar o'tar, oy o'tar, Nega otam kelmaydi? Farzandin sog'inganin, Ayting, nega bilmaydi? Tushimda ko'rgan kunim, Ko'zda bir tomchi yoshim. Otalilar yonida, Doim egik, xam boshim. O'g'ildir, qizdir farzand, Uning bog'i bo'lamiz. Bir kun o'sib-ulg'ayib, Suyanch tog'i bo'lamiz. Shu oddiy haqiqatni, Shoyad otam bilsaydi. Uyimizga bir umr, Ketmas bo'lib kelsaydi.

Umida SHARIPOVA, Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 2-o'rta maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi.

Ochil dasturxon

Dugonajonlar! Odatda biz «karam q u y i n g . do'lma»ni sho'rvali qilib tayyorlardik. Ammo Qozonning qopqog'ini yopib, gazga 1,5 soatga,

KARAM DO'LMA

men sizlarga ozarbayjoncha quruq «karam do'lma»ni o'rgatmoqchiman. Karamning o'zagini ajratib olib, qaynab chiqqan suvga yarim choy qoshiqda tuz soling. Karamingiz 7-8 daqiqa suvda qaynasin. So'ng, suvdan ko'tarib oling. Qiymasiga esa 4-5 dona piyozni go'sht qiymalagichdan go'sht bilan chiqaring. 250-300 gramm go'sht yetadi. Unga 2 bog' ko'kat to'g'rang, xohlasangiz 1-dona pomidor ham mayda qilib to'g'rang. Iloji bo'lsa, guruchni ozroq qo'shing. Ichiga tuz, o'zgina murch va zira qo'shing. Agar 2 osh qoshiqda qaymoq qo'shsangiz qiymangiz yanayam mayinroq bo'ladi. Hammasini aralashiring. Karamga oz-ozdan qiymani solib, o'rang. Quruq qozonga o'ralgan do'lmani qator qilib ustma-ust tering. Eng ustiga 3-4 qoshiqda eritilgan saryog', yoki yarim piyoladan o'zgina ko'proq pista yog'

ni, nihoyatda past olovga qo'ying. 1,5 soatga 10 daqiqa qolganida yarim piyola qaynoq suvga 1,5 choy qoshiqda shakar solib, yaxshilab aralashiring, qozon ichiga seping. 10 daqiqadan so'ng, qozonning olovini o'chiring. **Tokli do'lma**

«Tokli do'lma» ham xuddi shu asnoda tayyorlanadi. Ammo bunga shirin suv qo'shilmaydi.

ESLATMA: Qiymangizga guruchni kamroq soling. Mehr bilan qilsangiz, taomingiz shirin bo'ladi.

Go'shtsiz do'lma

6-7 dona kartoshkani 3-4 dona qizil sabzi bilan go'sht qiymalagichdan chiqaring. Yarim piyola guruch, 1 bog' ko'kat, tuz, murch, 1 dona pomidor qo'shing. Va shu taomni 40-45 daqiqaga past olovda gazga qo'ying. Go'sht qo'shish shart emas.

Mana sizlarga ozarbayjoncha do'lma. Yoqimli ishtaha.

Nargiza ABDULLAYEVA.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022- raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi. Gazeta

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahilalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Adadi - 40132 Buyurtma N: J 1300

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek ESHCHANOV. Navbatchi: Jamila ERDONOVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45